**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

| | |
|---|---|
| Ro‘yxatga olindi: | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi |
| BD-5110900 -3.12 | |
| 2018 - yil “03” 03 | 2018 yil “24” 03 |

# PSIXODIAGNOSTIKA VA EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA

## FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Gumanitar |
| Ta`lim sohasi: | 110000 – Pedagogika |
| Ta`lim yo‘nalishi: | 5110900 – Pedagogika va psixologiya |

Toshkent – 2018

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 27 03 dagi 274-sonli buyrug'ining 2 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan

Fan dastur Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta`limi yo'nalishlari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2018-yil 3 03 dagi 1 -sonli bayonnomasi bilan ma`qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi TDPUda ishlab chiqildi va turdosh oliy ta`lim muassasalari bilan kelishildi

**Tuzuvchilar:**

Z.T.Nishanova - Nizomiy nomidagi TDPU "Psixologiya" kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori

N.B.Atabaeva - "Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

N.Lutfullaeva– Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Kasb ta'limi (iqtisodiyoti) kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Sh.Vadenova –Toshkent pedagogika kolleji "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2017- yil 21 12 dagi 5 -sonli bayonnomasi).

7.Суннатова Р.И. Психологическая диагностика детского развития Т.: Фан ва технологиялар 2008

8.Sunnatova R.I., Irgasheva N.G. "Bola taraqqiyotini tashxis qilish" T.: Fan va texnologiyalar 2008

9.Николаевич Д.В."Психология и психодиагностика общих способностей" Спб.: Питер 1994

10.Пресс П."Экспериментальная психология" Спб.: Речь 2003.

11.Psychological testing. Robert M.Caplan, Dennic P.Saccuzzo.USA. 2008.

12.Девид Мартин Секреты механизмов психики. М.2009

**Internet saytlari**

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. ziyonet. uz
4. www. edu. Uz

## I.O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fani bo'lg'usi psixologlarni psixodiagnostik metodikalar, ularga qo'yiladigan talablar, eksperimentlarni o'tkazish bosqichlari, eksperimental psixologiyaning muammolari, eksperimental psixologik muammolarini hal qilishning ilmiy usul va vositalari, eksperiment natijalarini bir necha qayta ishlash metodlari, eksperiment natijalarini jadval va grafik ko'rinishda berish usullari, eksperimental psixologik tadqiqotga tayyorlanish, uni o'tkazish, eksperiment natijalarini tahlil qilish kabi nazariy bilimlar bilan talabalarni qurollantiradi.

Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fani asosiy umumkasbiy fan hisoblanib, 2-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fani umumkasbiy fanlar turkumiga kiradi va pedagogika va psixologiya bakalavriayt ta'lim yonalishi talabalariga o'qitiladi. Bugungi kunda amaliy psixologik xizmat tizimining toboro keng rivoj topishi, psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fanini chuqur bilish eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish asosida ilmiy amaliy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

### II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalar amaliy psixologiyaning sohalaridan biri bo'lmish psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fani bo'yicha chuqur mukammal bilimlarga ega bo'lishlari shuningdek, shaxs, intellekt, shaxslararo munosabatlar, bilish jarayonlari diagnostikasi hamda proektiv metodikalar hamda eksperimental psixologik tadqiqotlarni o'tkazish, eksperiment natijalarini taxlil qilish bo'yicha bilimlar majmuasini qo'lga kiritishlaridan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga psixodiagnostika va eksprementall psixologiyaning nazariy hamda amaliy asoslari bilan tanishtirish hamda ularda diagnostik tekshiruv, eksperimental tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

"Psixodiagnostika va eksprementall psixologiya" o'quv fani bo'yicha talabalar bilim, ko'nikma va malakasiga quyidagi talablar qo'yiladi **Talaba:**

– eksperiment o'tkazishning metodologik asoslari;

– bilish jarayonlari, intellekt, qobiliyat, shaxs, shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasi;

– psixodiagnostik metod va metodikalar ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;***

– psixodiagnostik metodikalar va eksperimentning validligi hamda ishonchliligini tekshirish; bilish jarayonlari, intellekt, qobiliyat, shaxs, shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasi va proektiv metodikalarni qo'llash; eksperiment natijalarini statistik tahlillarini amalga oshirish, korrelyatsion bog`lanishlarni aniqlash hamda shu asosida diagramma tuzish; eksperiment natijalarini tahlil qilish va ularni taqdimotini tashkillashtirish ***bilishi va ulardan foydalana olishi.***

– bilish jarayonlari, intellekt, qobiliyatlar, shaxs, shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasiga oid metodikalarni; shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasida qo'llaniladigan proektiv metodikalarni; ilmiy tadqiqotni

loyihalashtirish, ilmiy tadqiqotdagi o'zgaruvchilar va ularni tanlashni; eksperiment natijalarini tahlil qilish ***ko'nikmasiga ega bo'lishi.***

### III.Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

**1-Modul. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fani predmeti, tarixi**

**1-mavzu. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya faniga kirish**

Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya haqida, psixodiagnostika va eksperimental psixologiya psixolog amaliy faoliyatining muhim tarkibiy qismi va psixologiya fanining sohasi ekani haqida, psixodiagnostika va eksperimental psixologiya fanining vazifalari, psixodiagnostik va eksperimental bilimlar qo'llanadigan sohalar, psixodiagnostik va eksperimental tekshiruv bosqichlari, psixologik tadqiqotning asosiy metodologik tamoyillari

**2-mavzu. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya tarixi**

Psixodiagnostika va eksperimental psixologiyaning psixologik tadqiqotlar sohasi sifatida shakllanguncha bo'lgan davrda psixodiagnostikaga oid bilimlar taraqqiyotidan lavhalar (Qadimgi Xitoy, Yunoniston, Bobil va boshqa davlatlarda kundalik hayot ehtiyojlari ta`sirida ilk psixodiagnostik va eksprementaI tekshiruvlarning o'tkazilishi, o'rta asr faylasuf va yozuvchilari asarlarida psixodiagnostika va eksperimental psixologiyaga doir qarashlarning ifodalanishi), psixodiagnostikaning psixologik tadqiqotlar mustaqil sohasi sifatida rivojlanish davri (XX asrning 20-yillaridan hozirgi kungacha bo'lgan davrda psixodiagnostika va eksprementaI psixologayaga oid bilimlarning to'planishi), Sobiq ittifoqda psixodiagnostika va eksprementaI psixologaya fanining taqdiri, O'zbekistonda eksperimental laboratoriyalarning ochilishi.

**2-Modul. Psixodiagnostik metodikalar va ularga qo'yiladigan talablar**

**3-mavzu. Psixodiagnostik tekshiruvda qo'llanadigan asosiy metodlar haqida umumiy ma`lumot**

Metod va metodika haqida tushuncha. Standartlashtirilgan va ekspert (klinik) metodlarning asosiy farqlari. Test standartlashtirilgan psixodiagnostik metod sifatida. Test turlari. So'rov metodi va uning asosida ishlab chiqiladigan metodikalar. So'rovnomalar turi.

**4-mavzu. Psixodiagnostik metodikalar va psixodiagnostik tekshiruv jarayoniga qo'yiladigan talablar**

Validlik – psixodiagnostik metodikalarning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida validlikning asosiy turlari va ularni aniqlash usullari. Ishonchlilik – psixodiagnostik metodikalarning muhim psixiometrik ko'rsatkichi sifatida. Ishonchlilik turlari va ularni aniqlash usullari. Psixodiagnostik metodikani va tekshiruv natijalarini standartlashtirish muammosi. Psixodiagnostik tekshiruvda tanlanma to'plam reprezentativligi muammosi

**3-Modul. Shaxsning bilish jarayonlari, holatlari, xususiyatlari psixodiagnostikasi**

**5-mavzu. Bilish jarayonlari psixodiagnostikasi**

Diqqat psixodiagnostikasi (maqsad, amalga oshirish sohalari). Diqqat psixodiagnostikasida korrektur sinov va Gorbov Shulte jadvallaridan foydalanish

17. L.F.Burlachukning ma`ruza shaklida tayyorlangan "SHaxs psixodiognostikasi tushunchalar apparati va tadqiqot metodlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati bilan tanishish
18. L.F.Burlachuk, S.M.Morozovning "Psixodiognostikadan lug'at – spravochnik" asarida ma'lumot keltirilgan proektiv metodikalar, intellekt testlari, shaxs so'rovnomalari tizimini ishlab chiqish
19. A.A.Bodalyov, V.V.Stolin tahriri ostida nashr etilgan "Umumiy psixodiognostika" qo'llanmasi asosida psixodiognostik metodikalarni yaratish va moslashtirish muammosi hamda A.Anastazining "Psixolgik diagnostika" asari asosida psixodiognostikaning ijtimoiy ahloqiy jihatlari muammosini o'rganish
20. V.V.Stolin, A.G.SHmelev taxriri ostida nashr etilgan "Psixodiognostikadan praktikum Differentsial psixometirika" o'quv qo'lanmasi yoki psixodiognostik metodikalarni o'z ichiga olgan ilmiy, o'quv-uslubiy manbadan olingan metodiklar vositasida psixodiognostik tekshiruv o'tkazish

### VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Toshimov Yu., G'oziev E. "Psixodiagnostika va amaliy psixologiya" T.: O'zbekiston 2004.
2. Nishonova Z.T., Qurbonova Z., Qarshiyaeva D.S., Atabayeva N.B.. "Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya" T.: TDPU. 2014
3. Дружинин В.Н."Экспериментальная психология" М.: ИНФРА 2001
4. Солсо Р.Л "Экспериментальная психология" Спб.: Речь 2003


**Qo'shimcha adabiyotlar**


1.Мирзиёев Ш.М. Танқидий тахлил қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик хар бир рахбар фаолиятини кундалик қоидаси бўлиши керак Ўзбекистон Республикаси Вазирлар махкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи //Халқ сўзи газетаси 2017 йил 16 январ №11.

2.Мирзиёв Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. "Ўзбекистон" 2016.

3.Мирзиёв Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қўрамиз. "Ўзбекистон" 2017

4.Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2017—2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича харакат стратегияси. 7 январ 2017 йил.

5.Nishonova Z.T. va boshqalar Psixodiagnostika o'quv qo'llanma T.: TDPU 2008

6.Nishonova Z.T., Qarshieva D.S. Eksperimental psixologiya T.: TDPU 2009

## V. Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta`lim mashg'ulotlarida talabalar bilan psixologik qonuniyatlarni aniqlashga doir o'tkazilgan amaliy eksperimentlar orqali ularning psixik hodisalarga tegishli nazariy bilim va tushunchalari amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Natijada psixologiya nazariyasi va amaliyotining birligi ta`minlanadi.

Talabalarning psixodiagnostika va eksperimental psixologiya predmetiga oid bilimlarni o'zlashtirib borishlari yuzasidan olib boriladigan ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish va mustaqil ishlash metodikasi tufayli talabalar fandan mukammal bilim oladilar, psixolog kasbini egallash uchun jiddiy psixologik tayyorgarlikdan o'tadilar.

Mustaqil ta`lim mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar tavsiya qilingan adabiyot materiallarini qunt bilan o'rganib chiqishi, psixodiagnostika va eksperimental psixologiya muammolariga doir bittadan ma`ruza yoki referat tayyorlashi; amaliy-psixologik topshiriqlarni bajarishi lozim.

Talaba mustaqil ta`limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- Tarqatma materiallar bo'yicha ma`ruzalar qismini o'zlashtirish;
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzular ustida ishlash;
- Talabaning o'quv- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganishi kerak bo'ladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil talimning mavzulari:

1. Sharq mutaffakkirlarining asarlarida psixodiagnostikaga doir qarashlar
2. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar psixodiagnostikasi
3. O'smir va o'spirinlar psixodiagnostikasi
4. Kasbga yo'naltirish metodlari
5. Shaxsni tadqiq qilishning proektiv metodlari
6. Kasbga yo'naltirishda psixodiagnostikaning o'rni
7. Shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasi
8. Rivojlanishda orqada qolgan bolalar psixodiagnostikasi
9. Psixodiagnostikaning profesional ahloqiy asoslari
10. Intellekt testlarining qo'llanishi bilan bog'liq muammolar
11. Psixodiagnostikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari
12. Psixodiagnostik metodikalarga qo'yiladigan talablar
13. Psixologik tashxis mitodikalarini milliy-madaniy muhitga moslashtirish muammolari
14. Maktab psixologining faoliyatida psixodiagnostikaning o'rni
15. Guruhiy psixodiagnostika: metodlar va metodikalar
16. N.YA.Silvestrovaning "Bola psixodiognostikasi: rozilik va qarshilik" mavzusidagi, A.A.Nikelskayaning "A.Bine eksperimental psixologiya asoschilaridan biri sifatida" mavzusidagi maqolasi tahlili

masalalari. Diqqat psixodiagnostikasi uchun intellekt testlarining ayrim subtestlaridan foydalanish imkoniyatlari.Xotira psixodiagnostikasi uchun mo'ljallangan (D.Veksler xotira shkalasi, A.Benton vizual retensiya testi, R.Meyli xotira testi) hamda umumiy psixodiagnostik sinovlar (qatordagi elementlarni eslab qolish, assotsiativeslab qolish, tanib qolish vazifasiga asoslangan va yodlash jarayonini diagnostika qilishga asoslangan sinovlar)

### 6-mavzu. Intellekt psixodiagnostikasi

Intellekt koeffitsenti haqida umumiy ma`lumot. Intellekt testlarining asosiy xususiyatlari. R.Amtxauer intellekt strukturalari testi haqida. D.Vekslerni intellekt shkalalari haqida. J.Raven progressiv matritsalari testi.Maktab aqliy taraqqiyoti testi

### 7-mavzu. Psixologik xususiyatlar va holatlar psixodiagnostikasi

Qobiliyat psixodiagnostikasi va uning o'ziga xos jihatlari.Temperament va xarakterni aniqlash metodikalari. Xissiy holatlar va irodaviy soha psixodiagnostikasi.Motivasion sohani diagnostika qilish

### 8-mavzu. Shaxs psixodiagnostikasi.

Shaxs psixodiagnostikasida qo'laniluvchi metodik vositalarning turlari. Shaxs so'rovnomalarining keng tarqalgan namunalri haqida. Shaxs psixodiagnostikasida ob'ektiv va situatsion testlardan foydalanish muammolari.Shaxsning qadriyat orentasiyasini diagnostika qilish

### 9-mavzu. Shaxs psixodiagnostikasida proyektiv metodikalardan foydalanish

Proyektiv metodikalar haqida umumiy tushuncha. Proyektiv metodikalarning yaratiilish tarixi. Proyektiv metodikalarning asosiy guruhlari. "Rorshax siyoh dog'lari" proektiv metodikasi haqida. "Rozentsveyg frustratsiya testi" proyektiv metodikasi haqida. "Lyusher ranglarni tanlash testi" proyektiv metodikasi

### 10-mavzu.Shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasi

Shaxslararo munosabatlar haqida tushuncha. Shaxslararo munosabatlarning turlari va ularning o'zaro ta`siriga xos xususiyatlar. Shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasida sotsiometriya, referentometriya metodikalaridan, "Oila rasmi", "Jil film testi" proyektiv metodikalaridan foydalanish muammolari. Altruizmni aniqlash metodikalari.

## 4-Modul. Eksperimental psixologiya

### 11- mavzu. Ilmiy tadqiqotning umumiy sxemasi

Ilmiy tadqiqotni o'tkazishning asosiy bosqichlari. Tadqiqotning psixologik gipotezasi. Ilmiy tadqiqot gipotezasini emperik tekshirish

### 12-mavzu. Eksperiment natijalari tahlili

Chastotalar taqsimlanishi. Taqsimot tavsifi statistikasi. O'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni grafik taqdimoti. Diagramma. Korrelyatsiya koeffitsenti. Asosiy effektlar. O'zaro ta`sir. Statistik xulosalarni chiqarish metodlari. Parametrik va noparamatrik mezonlar. Ahamiyatlilik darajasi haqida